

## G'AZAL JANRINING KELIB CHIQISHI VA TARIXIY SHAKLLANISHI

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2-kurs magistranti, Olmazor tuman ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi*

**Naimova Muazzas Rayimjonovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Sharq mumtoz adabiyotida g'azal janrining kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari batafsil tahlil qilinadi. Arab adabiyotidagi ilk g'azal namunalaridan boshlab, fors-tojik va turkiy adabiyotdagi badiiy takomili ilmiy-nazariy manbalar asosida yoritilgan. Qudama ibn Ja'far, Shams Qays Roziy, Rashiddin Votvot, Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy, Kaykovus, Nizomiy Aruziy kabi allomalar ijodida g'azal haqidagi qarashlar, shuningdek, o'zbek adabiyotshunoslarining janrni o'rganishdagi hissalarini tahlil qilinadi. Maqolada g'azalning mazmuniy-ruhiy asoslari, shakliy xususiyatlari, tasavvufiy talqinlari, ta'lim jarayonidagi o'rni ham ilmiy yondashuvda ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *G'azal janri, Sharq mumtoz adabiyoti, tarixiy taraqqiyot, tasavvuf, aruz, qofiya, she'riyat nazariyasi, Navoiy, Taroziy, Qudama ibn Ja'far, g'azal genezisi, poetika, lirika, g'azaliyot.*

Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, g'azal janri inson ruhiyati, muhabbat, ma'rifat, ilohiylik va hayot falsafasining badiiy ifodasidir. G'azal janri badiiy tafakkur taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib, uning shakllanishi, taraqqiy etishi, mazmun-mohiyati, estetik funksiyasi haqida o'tmishdan to hozirgacha ko'plab ilmiy-nazariy tadqiqotlar yaratilgan. Ularda g'azal atamasining lug'aviy va istilohiy ma'nolari, janr sifatidagi asosiy xususiyatlari, badiiy qurilishi, mazmuniy turlari, g'oyaviy ko'lami, shuningdek, uning tarixiy takomili haqida batafsil to'xtalib o'tiladi. Sharq mumtoz adabiyotida g'azal, avvalo, inson qalbining nozik kechinmalarini, muhabbat, sadoqat, hijron, visol, hayot falsafasi singari mavzularni tasvirlash bilan ajralib turadi. Fors-tojik va turkiy adabiyotlarda ushbu janrning yuksak darajada rivojlanishi Nizomiy, Hofiz, Sa'diy, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk ijodkorlarning badiiy mahorati bilan chambarchas bog'liqdir.

G'azal janrining shakllanishi va taraqqiyotini o'rganish sharq adabiyotining umumiy rivojlanish jarayonini anglashda alohida ahamiyatga ega. Chunki g'azal nafaqat lirik janr sifatida, balki ma'naviy-ruhiy holatlarni badiiy ifodalashning eng takomillashgan vositasi sifatida ham e'tirof etilgan. Arab adabiyotidagi ilk gazallardan boshlab fors-tojik adabiyotidagi klassik shaklga, undan esa turkiy adabiyotning o'ziga xos uslubiy talqinlariga o'tish jarayonida g'azalning mazmun va shakl doirasi tobora kengayib borgan.

Sharq adabiyotshunosligida g'azalga berilgan ta'riflar ko'pligi ham ushbu janrning rang-barangligini ko'rsatadi. Masalan, klassik adabiyotshunos olimlar g'azalni "ishqiy tuyg'ularni madh etuvchi lirik janr", "majoziy va haqiqiy ishqni badiiy talqin qiluvchi she'riy shakl", "ruhiy kechinmalar tarjimoni" kabi izohlar bilan ta'riflaydi. Tasavvufiy adabiyotda esa g'azal

yanada murakkab, ramziy ma'nolar tizimiga ega bo'lgan janr sifatida talqin qilinadi. Bu talqinlarda majoziy ishq orqali ilohiy ishqqa yetishish, o'zlikni anglash, ruhning poklanishi kabi mavzular yetakchi o'rin egallaydi. "G'azal" atamasi ilk bor arab adabiyotida vujudga kelgan bo'lib, uning ta'rifi adabiyot nazariyasiga oid klassik manbalar orasida ilk bor Qudama ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r" asarida uchraydi va quyidagicha ta'rif beriladi: "G'azal – bu muhabbat bo'lib, ayollarga bo'lgan aqldan ozdiruvchi sevgi haqidagi hikoyatdir". G'azalning qachon paydo bo'lgani va ilk g'azal muallifi haqida turli qarashlar mavjud, olimlarning aniqlashicha, g'azal islomdan oldin, johiliyat davrida ham mavjud bo'lgan. Filshtinskiy arab olimi Al-Isfahoniyning (X – XI asrlar) ma'lumotlariga tayanib, birinchi sevgi mazmunidagi she'r – g'azal yozgan shoir sifatida Muhalhilni (o'limi tax. mil. 530 й.) qayd etadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, tinglovchilar mashhur arab shoirlaridan Umar ibn Abu Robianing (644 – 712) ba'zi she'rlarini "g'azal" deb atagan. Boshqa rivoyatga ko'ra, ushbu shoirning bir she'rini boshqasidan tinglagan Farazdak (o'limi 728 yil): "Ey Abul Hattob, vallohiy, sen butuninsonlarning eng go'zal g'azal aytganisan", – der edi. G'azal janri haqida ma'lumot beruvchi fors tilida yaratilgan ilk manba sifatida e'tirof etiluvchi Shamsuddin Muhammad ibn Qays Roziyning (XII asr oxiri – XIII asr boshi) "Al-mo'jam fi ma'oyiri ash'or ul-ajam" ("Ajam she'r o'lchovlari lug'ati") asarida g'azal so'zining lug'aviy ma'nosi, kelib chiqish etimologiyasi haqida to'xtalsa, Qabul Muhammadning "Haft qulzum" asarida g'azal janrining istilohiy ma'nosi, tuzilishi, baytlar miqdori, asosiy mavzular to'g'risida nisbatan to'liqroq ma'lumotlar berilgan. Rashiddin Votvot (XIII asr) "Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r" asarida ham g'azalga qisqa, ammo juda aniq ta'rif bergan. G'azal so'zi, atamasi turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar orasida shu qadar ommalashib ketganki, hatto xalq og'zaki ijodiga tegishli asarlar, xususan, xalq dostonlarida unga tez-tez duch kelamiz. "G'azal" atamasi xalq og'zaki ijodida bayt, she'r, she'riy asar ma'nolarida faol qo'llangan. Turkiy xalqlar adabiyotshunosligida bu yo'nalishdagi ilk asar Shayx Ahmad Taroziyning (XIV asr oxiri – XV asr) "Funun ul-balog'a" [179] asaridir. Husayn Voiz Koshifiy (XV asr)ning "Badoyi ul-afkor fi sanoye ul-ash'or" [94] asarida ham g'azal janri haqidagi muhim nazariy fikrlar o'rin olgan. Mazkur janr xorijlik sharqshunoslaridan Kananiy, E. E. Bertels, S. N. Ivanov, A. Mirzoyev, A. Atesh, I. M. Filshtinskiy, M. L. Reysner, F. D. Levish, Sh. No'moniy, H. Ayangil, D. Jalajel kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda g'azalning genezisi va shakllanish tarixi, takomili tadqiq etilgan. Bunda qadimgi davrlarga mansub qo'lyozmalar, adabiyotshunoslikka oid ilmiy-tarixiy manbalar, shuningdek, badiiy asarlar tarkibidagi adabiy qarashlar e'tiborga olingan. O'zbek adabiyotshunosligida g'azal janri Fitrat, M. Shayxzoda, Oybek, N. Mallayev, A. Hayitmetov, O. Nosirov, R. Orzibekov, Y. Ishoqovlar tomonidan maxsus o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda g'azal janrining turkiy adabiyotda paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi, yetakchi taraqqiyot tendensiyalari, g'azalning kompozitsiyasi, o'zbek g'azaliyotining tasnifi va boshqa jihatlariga alohida ahamiyat berilgan. Ushbu tadqiqotlarning natija va umumiy xulosalari "Adabiy turlar va janrlar. Lirika" [27] va "Adabiyotshunoslik lug'ati" [192] da ham aks etgan. Sharqda qadimdan she'r va shoirlikka alohida e'tibor qaratilgan va inson ma'naviy kamolotini belgilovchi mezonlardan biri hisoblangan.

Shoirlarning jamiyatdagi obro'-e'tibori baland bo'lib, hatto hukmdorlar ham ularga izzat-ikrom ko'rsatganlar. O'z fikrlarini ma'lum o'lchovga solib nazmda ifodalash yuksak iste'dod sanalgani va muayyan fikrni yaxshiroq yetkazish imkonini bergani bois nafaqat badiiy, balki tarixiy, ilmiy asarlarning salmoqli qismi ham she'rda ifoda etilgan. Shoir va ijodkorlar she'rning mohiyati va shoirlik mahoratiga oid fikrlarini alohida asarlarda emas, balki muayyan asarlar tarkibidagi maxsus boblarda, devonlar debochalarida, dostonlarning kirish qismlarida bayon etishgan. Masalan, Kaykovus "Qobusnoma"ning 35-bobini "Shoirlik rasmi zikrida" deb nomlangan va unda shoirlarda bo'lishi lozim bo'lgan sifatlarni mufassal bayon qilgan: "Har so'zniki she'rda aytmoq istasang, madhiya, g'azal, hajv yoki marsiya yozmoq bo'lsang, so'zni batamom va mukammal ishlat, hargiz so'zni notamom aytmag'il... G'azalni go'zal va ravon aytg'il, madh aytishda qaviy dil va baland himmat bo'lg'in. Har odamga loyiq so'zni va har kishining qadriga muvofiq she'rni bilib yozg'il" [88, 123-b.]. Kaykovus bu o'rinda so'zni o'z maromi va o'rnida ishlatish lozimligiga diqqat qaratib shoirlar uchun ushbu fazilatning bo'lishini shart deb hisoblaydi. Nizomiy Aruziy Samarqandiyning "Chahor maqola" asarining ikkinchi bo'limi "She'r ilmining mohiyati va shoir salohiyati haqida" deb nomlangan bo'lib, unda ham biz tahlil etayotgan mavzuga taalluqli quyidagi fikrlar uchraydi: "Shoirning ruhi toza, fikri keng, ta'bi latif, ko'ngli to'g'ri va zehni o'tkir bo'lmog'i lozim. U yana turli fanlardan xabardor bo'lishi, har xil odatlar bilan tanish bo'lmog'i kerak. Chunki she'r har bir ilmida qo'l kelishi va har xil ilm she'rda ifodalanishi mumkin. Agar shoir yoshlik ayyomida va yigitlik davronida shoirlarning she'rlaridan yigirma ming baytni xotirasida tutmasa, zamondoshlarining asarlaridan o'n ming baytni yod bilmasa, ustodlar devonini payvasta o'qimasa, so'zning nozik tomonlari va qiyin joylarini qanday yo'l bilan hal etganliklarini o'rganmasa, bunday yuksak darajaga yetolmaydi hamda she'r navlari va yo'llari uning tabiatida o'z aksini ko'rsatmaydi, so'zlari buyuklik tomon, ta'bi esa yuksaklik sari mayl etmaydi" [Qarang: 52, 33-b.]. Alisher Navoiy esa "Hayrat ul-abror" dostonining so'z ta'rifiga bag'ishlangan bobida [120, 59 – 61-6.] so'zning ijtimoiy hamda estetik ahamiyatiga alohida urg'u beradi. Ayni paytda nasrning ulug' mavqeyiga munosabatini bildira turib, nazmga yanada yuksak martaba munosibligini ta'kidlaydi. Nazm, adib fikricha, gulshanda ochilgan gul, nasr esa o'sha gulning yerga sochilgan holatidir. Buning asosiy sabablaridan biri nazmning ilohiy asoslarga – mo'jizaga egaligi, xususan, Qur'oni Karimning ifoda uslubi she'riy elementlar bilan bezatilganidir. Ammo nazm go'zal ma'no bilangina yarashiqli bo'ladi. Uning surati, shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar, agar mazmuni munosib bo'lmasa, bu she'rni yaxshi deb bo'lmaydi. Ma'nosi yoqimli va shakli go'zal bo'lgan nazmgina "dilkash" bo'ladi. Ushbu mulohazalar XV asr sharoitida aytilgan bo'lishiga qaramay, bugun ham o'zining ilmiy-amaliy qimmatini yo'qotgan emas. Lirik asarlar ma'lum ohangga solingani, hajm jihatidan boshqa adabiy turlarga nisbatan siqiq, insonlar xotirasida tez va oson saqlanib qolishi, kishiga ma'rifiy-estetik ta'sir ko'rsatish imkoniyatining kengligi, o'quvchining turli yosh xususiyatlari va adabiy tayyorgarligiga mos bo'lgan xilma-xil janrlarga egaligi sababli qadimgi davrlardan bugungi kungacha ta'limning turli bosqichlarida o'rganilgan, o'quvchilarga eng kichik yoshdan o'qitilgan. Xususan, g'azal janridagi asarlar maktab, madrasalarda muntazam

o'rganilgan. Sharqda uzoq yillar davomida o'qitilgan ilmi aruz, ilmi qofiya va ilmi bade kabi fanlar doirasida g'azallardan namunalar o'quvchilarga tanishtirib borilgan va tahlil qilingan. Arab va fors tillarida bitilgan ko'plab asarlar she'riyat ta'limida keng qo'llangan. Turkiy tilda yozilgan Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a", Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Boburning "Muxtasar" kabi asarlari ham shoirlik va she'r ilmiga qiziquvchilar uchun muhim qo'llanma vazifasini o'tagan. Bunda g'azallarning shakliy xususiyatlari, qofiya tizimi, ayniqsa, vaznga doir ko'rsatmalar asosiy o'rin tutgan. Bu she'riy asarlarning to'g'ri o'qilishiga, demakki, ularning mazmunini to'g'ri va to'liq anglashga imkon bergan. Shunga qaramay, tariximizda she'r ilmi ta'limiga oid maxsus manbalar yaratilgan emas. Mavjud adabiyotlar ko'proq nazariy xarakterga ega bo'lib, ularda she'riy asarni o'quvchiga qay tarzda yetkazish, she'rni o'qish va o'rgatishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi haqidagi tavsiyalar o'rni-o'rni bilan uchrab turadi. Masalan, Alisher Navoiyning "Majolis un- nafa'is" tazkirasining Husayn Boyqaroga bag'ishlangan sakkizinchi majlisida Navoiy Husayn Boyqaro g'azallarining matlallari asosida ularga xos badiiy xususiyatlar, mazmun-mundarijani izohlab bergan. Navoiy tutgan ushbu yo'l g'azal janrini tushunish va tushuntirishda yangicha yondashuvdek taassurot qoldiradi.

Lirik asarlar ma'lum ohangga solingani, hajm jihatidan boshqa adabiy turlarga nisbatan siqiq, insonlar xotirasida tez va oson saqlanib qolishi, kishiga ma'rifiy-estetik ta'sir ko'rsatish imkoniyatining kengligi, o'quvchining turli yosh xususiyatlari va adabiy tayyorgarligiga mos bo'lgan xilma-xil janrlarga egaligi sababli qadimgi davrlardan bugungi kungacha ta'limning turli bosqichlarida o'rganilgan, o'quvchilarga eng kichik yoshdan o'qitilgan. Xususan, g'azal janridagi asarlar maktab, madrasalarda g'azallarning ma'rifiy, tarbiyaviy tomonlari o'qituvchi va o'quvchilar uchun namuna qilib ko'rsatadi. Har holda, mumtoz adiblar va mutafakkirlar asarlaridagi mana shu kabi o'rinlar she'rni tushunish va tushuntirishda asosiy ko'rsatkich vazifasini bajargan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinoning ijod namunalari orasida ham she'r ilmiga bag'ishlangan asarlar mavjud. Abu Nasr Forobiy "Ixso al- ulum" ("Ilmlarning xosiyatlari"), "She'r san'ati", "Shoirilar san'ati qonunlari haqida" nomli asrlarida she'r ilmiga oid fikrlarini bayon qiladi. She'r haqidagi nazariy fikrlar, asosiy tushunchalar, she'riy asar kompozitsiyasi kabi muhim masalalar Arastuning "Poetika" asariga sharh sifatida yozilgan Forobiyning "Shoirilarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida" asarida va Ibn Sinoning "She'r san'ati" [13] kitobida tushuntirilgan. Ushbu asarlarda, asosan, qadimgi yunon adabiyotida mavjud bo'lgan she'riy janrlar haqidagi qarashlar sharhlangan. Forobiy "Ixso al- ulum"da qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalalari)ga oid ilmlar qatorida to'rt xil ilm: til, grammatika, logika va she'riyat ilmi(poetika)ni ham keltiradi. U she'r ilmiga shunday ta'rif beradi: "U nutq (so'z)larni fazilat va izchilligiga qarab qanday tartibda joylashtirish, ya'ni so'zlarni mutanosibli va turog'iga qarab, masalan, to'rttadan, oltitadan yoki sakkiztadan joylashtirishni o'rgatadi. Bu sonlar (ya'ni, 4, 6, 8 tadan bo'lishi) yakunlovchi va bu maqsad uchun eng munosib sonlardir. Shuning uchun ham qunt bilan kuzatib muhokama qilginki, bu ruhingni donolik lazzatidan tottirishga, haqiqatga muhabbatini qo'zg'atishga bois bo'lsin,

chunki agar Xudo istasa, shu yo'l bilan sen ayrim yashirin va o'zing uchun baxt keltiruvchi narsalarni tushunib olasan" [14, 179-b.].

Fitrat 1926 yili "adabiyot muallimlari ham adabiyot havaslilari uchun" qo'llanma sifatida tayyorlagan "Adabiyot qoidalari" kitobining "Fors-arab aruzida tizim shakllari" bobida g'azalga quyidagicha ta'rif beradi: "Birinchi baytning har ikki misrasida, ondan keyin har baytning oxirida qofiya bir turli bo'lg'an tizmalar 12 baytdan ortuq bo'lmasa g'azal bo'ladi. Yurak "lirizmi" she'rlari ko'brak g'azal shaklida aytiladi" [176, 50-b.]. Bundan tashqari kitobning "Aruz", "Qofiya" kabi bo'limlarida ham o'rni bilan g'azal janriga oid tushunchalar izohlab ketilgan. To'g'ri, Fitratgacha ham g'azal nazariyasiga oid kitoblar yetarlicha yozilgan, lekin ularning hech biri maxsus o'qituvchilar uchun yaratilgan emas, shuningdek, ularni oddiy murabbiylar qo'liga yetkazish ham mushkul masala bo'lgan. Shu nuqtayi nazardan mazkur qo'llanmada yoritilgan adabiy-nazariy tushunchalar juda qisqa tarzda ifodalansa-da, ta'limni butunlay yangi usulda tashkil etayotgan pedagoglar uchun muhim metodik qo'llanma vazifasini o'tagan.

Maqoladagi ilmiy-nazariy qarashlar shuni ko'rsatadiki, g'azal Sharq adabiy tafakkurining eng barqaror va eng boy ma'naviy qatlamlaridan biridir. Janrning ko'p asrlik tarixida u nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki inson ruhiyatini anglash, ma'rifiy tarbiya berish, ilohiy haqiqatni idrok etishga undovchi vosita sifatida ham shakllangan. Bugungi kunda g'azalni o'rganish faqat tarixiy merosni o'zlashtirish emas, balki zamonaviy adabiy tafakkur uchun ham yangi ilmiy ufqlar ochadi. Shaxsan men uchun ushbu janrning eng ahamiyatli jihati — uning ruhiy poklanish, o'zlikni anglash va ichki uyg'onishga turtki beruvchi ma'rifiy xususiyatlaridir.

#### **UMUMIY XULOSALAR**

1. G'azal janri Sharq adabiy tafakkurining markazida turgan lirik shakl bo'lib, uning ildizlari arab adabiyotiga borib taqaladi.
2. Fors-tojik va turkiy adabiyotlarda g'azal nafaqat ishqiy lirika, balki tasavvufiy va falsafiy mazmunning badiiy timsoli sifatida taraqqiy etgan.
3. Qudama ibn Ja'far, Shams Qays Roziy, Rashididdin Votvot, Taroziy kabi olimlar g'azalning nazariy asoslarini yaratgan.
4. Navoiy g'azaliyotning eng yuksak namunalarini yaratib, nazmning estetik funksiyasi va ijtimoiy ahamiyatini yangi darajaga ko'targan.
5. G'azalning qadimiy maktab va madrasalarda o'quv jarayoniga kiritilgani uning ma'rifiy imkoniyatlarini kengaytirgan.
6. Bugungi kunda ham g'azal janri o'z ilmiy qimmatini saqlab, adabiyotshunoslikda izlanishlar uchun muhim manba bo'lib qolmoqda.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qudama ibn Ja'far — Naqd ush-she'r.
2. Shams Qays Roziy — Al-mo'jam fi ma'oyiri ash'or ul-ajam.

- 3.Qabul Muhammad — Haft qulzum.
- 4.Rashididdin Votvot — Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she’r.
- 5.Ahmad Taroziy — Funun ul-balog’a.
- 6.Husayn Voiz Koshifiy — Badoyi ul-afkor fi sanoye ul-ash’or.
- 7.Nizomiy Aruziy Samarqandiy — Chahor maqola.
- 8.Kaykovus — Qobusnoma.
- 9.Alisher Navoiy — Majolis un-nafois, Hayrat ul-abror, Mezon ul-avzon.
- 10.Abu Nasr Forobiy — Ixso al-ulum, Shoirlar san’ati qonunlari haqida.
- 11.Abu Ali ibn Sino — She’r san’ati.
- 12.Fitrat — Adabiyot qoidalari.
- 13.Adabiy turlar va janrlar. Lirikalar.
- 14.Adabiyotshunoslik lug’ati.